

JALOLIDDIN MANGUBERDI -VATAN HIMOYACHISI

Andijon davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi: **Atabaeva.N.M.**
Andijon davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi: **Sodiqova.M.S.**
Andijon davlat pedagogika instituti
Oligofrenopedagogika yo'nalishi
101-guruh talabalari:
Raxmonova Zahro Baxromjon qizi
Ismonjonova Mubina Dilshod qizi

Annotatsiya :ushbu maqolada Jaloliddin Manguberding tarixdagi jasorati va vatanparvarligi bilan nom qozonishi. U Vatan ozodligi yo'lida mislsiz qahramonliklarini ko'rsatib, millatning hurriyat sari ruhlantirgan jasur sarkarda sifatida ehtiromga sazovor bo'lishi haqidadir.

Аннотация: В этой статье Джалалуддин Мангуберди делает себе имя в истории благодаря своей храбрости и патриотизму. Речь идет о том, чтобы заслужить уважение как храбрый полководец, проявивший беспрецедентный героизм на пути к освобождению Родины и вдохновивший нацию на путь к храбрости.

Annotation: in this article, Jaloliddin Manguberdi is named for his courage and patriotism in history. He is about to be venerated as a brave warlord who, by showing his unparalleled heroism in the cause of the liberation of the Fatherland, inspires the nation to the hurriyat.

Kalit so'zlar: Urug', taxt vorisi, haram, kanizak, sarkarda, suiqast,suvoriy, qipchoq amiri,g'azna , davat,fapdis qala, sint daryosi.

Ключевые слова: семья, наследник престола, гарем, наложница, полководец, убийца,Сувари, кипчакский Эмир,газна , дават,фапдис кала, река Синт.

Keywords: seed, Crown Prince, haram, concubine, sarkarda,assassination, cavalry,Kipchak Emir , Ghazna,Dawat, fapdis qala, sint River.

Jaloliddin Manguberdi To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Onasi – Oychechak bo'lgan. Dastlab u taxt uchun asosiy da'vogar hisoblanmagan, chunki onasi Oychechak Aluddin Xorazmshoh haramidagi kanizaklardan biri edi. Taxt vorisi G'iyosiddin Pirshoh bo'lgan va uning taxt borasidagi da'volarini onasi Terken Xotun qo'llab quvvatlagan. Ammo, otasi o'limi oldidan Jaloliddinni taxt vorisi qilib tayinlaydi, Jaloliddin Anushteginiylar Turkman Sulolasidan Bo'lgan. Sulton

Jaloliddinning shaxsiy kotibi Shihob addin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy uni shunday ta’riflaydi: „U qora tanli, bo‘yi past, nutqi va ifodasi turkiy edi, lekin forscha ham gapirardi. Uning jasoratiga kelsak, men aytib o‘tgan janglar bu haqda gapirishga kifoya qiladi. U sherlar orasida sher, jasur otliqlari orasida eng jasuri va mardi edi. Yumshoq ko‘ngilli vatanparvar va pok qalbli edi, jahli chiqmasdi, so‘kmasdi. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G‘azna, Bomiya, G‘ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo‘lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215), biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat’iy noroziligi sababli Qutbiddin O‘zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida faol ishtirok etib, o‘zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etib ulgurgan edi (qarang Irg‘iz daryosi bo‘yidagi jang). Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Movarounnahrda bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo‘yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashura orolidan panohtopgan. Og‘ir bemor bo‘lgan Muhammad o‘g‘illarini yoniga chorlab, so‘nggi damda Jaloliddin Manguberдини o‘z o‘rniga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O‘zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e‘lon qilib bo‘lgan, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqaqd uyushtirish rejalarini xam tuzishga ulgurgan edilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo‘l oladilar. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo‘g‘ul suvoriysi kutib oldi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so‘ng ularni tor-mor keltirib so‘ng Nishopurga keldi. Bu yerdan u birma bir barcha viloyat hokimlariga nomalar jo‘natib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da’vat etadi. Bir oydan so‘ng G‘azna tomon yo‘l oladi. Yo‘lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo‘shin bilan kelib qo‘shilgan. Qandahorni qamal qilib turgan mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgach, Jaloliddin G‘aznaga 1221-yilda kirib keladi. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig‘i Sayfuddin Ig‘roq, Balx voliysi A‘zam Malik, afg‘onlar sardori Muzaffar malik, qarluqlar yetakchisi Hasan Qarluq kelib qo‘shilgan. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo‘shin bor edi. Jaloliddin Manguberding o‘zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal’asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg‘ur boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so‘ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo‘g‘ul askari o‘ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o‘tib, ko‘prikni buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberding mo‘g‘ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g‘alabasi edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal’asini qamal qilayotgan ko‘psonli mo‘g‘illar ustidan birinchi katta g‘alabani qo‘lga kiritdi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon Shiki

Xutuhu boshliq 45 000 qo‘shinini Jaloliddin Manguberdiga qarshi jo‘natadi. G‘azna yaqinidagi Parvon dashtida bo‘lgan bu jangda Jaloliddin Manguberdi g‘alabani qo‘lga kiritgan. Lekin o‘lja ustidagi janjal sabab Aminalmulkdan boshqa sarkardalar Jaloliddin Manguberдини tark etishadi. Bu vaziyatdan xabar topgan Chingizxon ning shaxsan o‘zi Jaloliddin Manguberdiga qarshi o‘tlanadi. 1221 yil 25 noyabrda Sind daryosi bo‘yidagi mash‘um jangda jasorat va shijoat bilan kurashgan Jaloliddin Manguberdi mag‘lub bo‘lsa ham dushmani – Chingizxon e‘tiboriga sazovor bo‘ldi. 1224 yilgacha shimoliy Hindiston hududida davlatni mustahkamlash uchun olib borgan kurashlari mo‘g‘illarning Hindistonga yo‘lini berkitib turdi. Lekin mahalliy hokimlarning o‘rinsiz qarshiliklari Jaloliddin Manguberdingin Iroqqa yuz tutishiga sabab bo‘ldi. Bu yerda Kirmon, Isfahon hokimlari va ukasi G‘iyosiddin Pirshoh amirlari Jaloliddin Manguberdi hokimiyatini tan oladilar. 1225–1230 yillarda Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjon, Gruziya, Iroq hududlaridagi mahalliy hokimlarni bo‘ysundirib, bu hududga bostirib kirgan mo‘g‘il qo‘shinlarini bir necha bora (1227–1228–30) tor-mor etdi. Ko‘niya sultoni Alouddin Kayqubod muholif kuchlarni Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirdi. Bu holat Jaloliddin Manguberdingin ikkita dushman orasida qolishiga olib keldi. Ahillik va birlikning yo‘qligi, aldov va xoinliklar chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik bayrog‘ini yuksakka ko‘targan Jaloliddin Manguberdingin tinkasini quritdi va 1231 yilda u Kurdiston tog‘larida fojiali ravishda halok bo‘ldi. 1999 yil noyabrida yurtimizda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi va Xorazmda xalqimizning bu qahramon farzandiga ulug‘vor haykal o‘rnatildi.

Xulosa: Biz Jaloliddin Manguberдини o‘zbek davlatchiligi tarixidagi juda katta shaxslardan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirganligini. Uning buyuklik darajasi, ko‘rsatgan jasoratlari, aqliy jihatdan yetukligi, harbiy barkamolligini bugungi maqola orqali ko‘rdik. Uning eng katta buyukligi shunda ko‘rishimiz mumkinki, qayerga hujum qilmasin, o‘sha yerni jahannamga aylantirayotgan, toptayotgan Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar aynan Jaloliddinga kelganda ensasi qotadigan darajada boshi berk ko‘chaga kirib qolishi. Qiziq tomoni shundaki, bu voqea- hodisalar mo‘g‘ullar tarixida eng cho‘qqiga chiqqan, raqib tanlamay g‘alaba qozonayotgan davrga to‘g‘ri kelishi, Jaloliddin aynan shu davrda sodir bo‘lgan 14 jangning naqt 13tasida zafar quchdi. So‘nggi mag‘lubiyati ham uning kuchsizligi emas, balki yaqinlarining xiyonati hamda dushmanlarning ittifoqi natijasi bo‘ldi. Ha, Jaloliddindek buyuk siymoga eng ko‘p zarar bergan omil bu xiyonatdir. Xattoki uning o‘limi ham uning shaxsiyatiga munosib bo‘lmadi. Oddiy kurd kishisining qo‘lida o‘lim topdi. Lekin bunda ham ramziy ma‘no bor, ya‘ni mo‘g‘ullar har qancha harakat qilmasinlar baribir ularga Jaloliddindek mard sarkardani o‘ldirish nasib etmadi. Bugun biz yoshlar Jaloliddin Manguberdi siymosidan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, bahodirlik, harbiy mahorat, chidamlilik, intiluvchanlik hamda yengilmaslik kabi hislatlarni o‘rganishimiz hamda ularga amal

qilishimiz zamon talabidir. Shundagina bizning oramizdan ham davlatimizni yuksaltira oladigan Jaloliddindek mard, jasur, er yigitlar chiqadi va ko'payib boradi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи: (Энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар. - Т.: Шарк, 2001.
2. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. - Т.: VNESHINVESTPROM, 2019.
3. Содиков Х. Султон Жалолиддин Мангуберди. - Т.: ART FLEX, 2009.
4. https://uz.ru.wikipedia.org/wiki/Sind_daryosi_bo%CA%BByidagi_jang
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi. K.1. - Т.: Sharq, 2010.
6. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Жалолиддин Мангуберди хайоти/Матёкубов тарж./ - Т.: Узбекистон- Ёзувчи, 1999.
7. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Жалолиддин Мангуберди хайоти. - Т.: O'zbekiston, 2006.
8. Жабборов И. Буйук Хоразмшохлар давлати. - Т.: Шарк, 1999.
9. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan uchinchi nashr. - Т.: Sharq, 2017.